



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864





MUNDARIJA				
1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна		Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi		O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich		Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich		Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi		Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich		Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich		Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li		Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович		АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi		Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna		Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich		Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich		Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna		O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли		Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович		Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович		Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat		Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli		Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна		Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





BANK FAOLIYATIDA RISKLARNING TURLARI, ULARNI SAMARALI BOSHQARISH

Ishniyazov Otabek Baxodirovich

*“Bank hisobi va auditi” kafedrası
mustaqil izlanuvchisi (PhD)
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: otabek_144@mail.com
ORCID: 0009-0005-2536-7807*

***Annotatsiya.** Maqolada tijorat banklari faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar, ularni boshqarish, minimallashtirish yondashuvlari tahlil etilgan. Muallif tomonidan risklarni taqsimlash, limitlash, kutilmagan xarajatlarni qoplash masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, zaxiralash orqali risklarni minimallashtirish kabi yondashuv taklif etilgan.*

***Kalit so'zlar:** risk va uning turlari, diversifikatsiya, zaxiralash, limitlash, risklarni boshqarish, minimallashtirish.*

ВИДЫ РИСКОВ В БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ

Ишниязов Отабек Баходирович

*Самостоятельный соискатель ученой
степени PhD кафедры «Банковский учет и аудит»
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: otabek_144@mail.com
ORCID: 0009-0005-2536-7807*

***Аннотация.** В статье проанализированы риски, которые могут возникать в процессе деятельности коммерческих банков, а также методы их управления и минимизации. Автор рассмотрены вопросы распределения рисков, установления лимитов и покрытия непредвиденных расходов. Кроме того, предложен подход к минимизации рисков посредством формирования резервов.*

***Ключевые слова:** риск и его виды, диверсификация, резервирование, лимитирование, управление рисками, минимизация рисков.*

TYPES OF RISKS IN BANKING ACTIVITIES AND THEIR EFFECTIVE MANAGEMENT

Ishniyazov Otabek Bakhodirovich

*Independent PhD Researcher,
Faculty of Banking Accounting and Audit
Tashkent State the University of Economics
E-mail: otabek_144@mail.com
ORCID: 0009-0005-2536-7807*

***Abstract.** This article analyzes the risks that may arise during the operations of commercial banks, as well as the approaches used for their management and mitigation. The author examines issues related to risk allocation, the establishment of limits, and the coverage of unexpected expenses. In addition, the article proposes the use of provisioning (reserve formation) as an approach to minimizing risks.*

***Keywords:** risk and its types, diversification, provisioning, limit setting, risk management, risk mitigation.*





Kirish

Xalqaro arenalarda yuz berayotgan geosiyosiy muammolar jumladan, Yevropadagi Rossiya – Ukraina, Yaqin Sharqdagi AQSH, Isroil – Eron hududidagi keskinlik, Afgʻoniston – Pokiston oʻzaro salbiy munosabatlari natijasida jahon moliya bozorida keskin oʻzgarishlar yuz bermoqda. Xususan, 2025 yilda savdo siyosati noaniqliklari boʻyicha muhokamalar qamrovining ortishi savdo siyosati noaniqlik indeksini (Trade Policy Uncertainty (TPU) Index) oʻsishida oʻz ifodasini topdi. Bunda, savdo tariflarining tiklanishi taʼsirida iqtisodiy oʻsishning pasayishi boʻyicha xavotirlar mavjud. 2025 yilda jahon noaniqlik (World Uncertainty Index WUI) indeksini oʻsishi xalqaro miqyosda mavjud noaniqliklar toʻgʻrisidagi iqtisodchilarning xavotirlari yuqori ekanligidan dalolat bermoqda. Global miqyosda asosiy xavotirlar fokusi savdo siyosatidagi noaniqliklarga oʻzgarmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, 2025 yil yakuni boʻyicha geosiyosiy xatar (Geopolitical Risk (GPR) Index) hamda jahon iqtisodiy siyosat noaniqlik (Global Economic Policy Uncertainty, GEPU) indekslarini pasayishida namoyon boʻldi. Mazkur geosiyosiy keskinlik va noaniqliklar Oʻzbekiston moliya tizimga taʼsir etmay qolmaydi va bunda iqtisodiyot dvigateli boʻlgan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini taʼminlash, yuzaga kelishi mumkin boʻlgan risklarni oldini olish va bartaraf etish oʻta dolzarb masala hisoblanadi.

“Risk” atamasini har kim turlicha talqin etadi. Ayrim insonlar uni tavakkalchilik deb atasa, ayrimlar zarar koʻrishning ehtimoli va yana baʼzi insonlar uni xavf sifatida koʻrishadi. Aslida esa, risk – bu nomaʼlum natijalar va koʻrilishi mumkin boʻlgan zararlarni oʻz ichiga olgan vaziyatni anglatadi. Risk, biror qaror yoki harakatni amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan ijobiy yoki salbiy natijalarning ehtimolini oʻrganadi. Riskni baholashda, oʻzgaruvchanlik, ehtimollar va ehtimoliy oqibatlar inobatga olinadi.

Moliyaviy riskni boshqarish — bu tashkilotlarda moliyaviy xizmatlardan kelib chiqadigan turli xil risklarni aniqlash, boshqarish va ularni kamaytirishdir. Tijorat banklarida ham risklar katta ahamiyatga ega boʻlib, ular bank faoliyatiga bevosita yoki bilvosita taʼsir oʻtkazadi. Xalqaro bank amaliyotining hozirgi rivojlanish bosqichida tijorat banklari faoliyatida risklarning ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu esa bank risklarini baholash va boshqarish tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, ularga qoʻyiladigan talablarni kuchaytirishni talab qilmoqda. Tijorat banklarida riskni yaxshi boshqara olmaslik nafaqat bankning oʻziga, balki ularning mijozlari boʻlmish yuridik va jismoniy shaxslarning mablagʻlariga ham oʻz taʼsirini koʻrsatmay qolmaydi. Bunga yaqqol misol qilib 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini keltirib oʻtishimiz mumkin. Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov eʼtirof etganlaridek, "bu inqiroz Amerika Qoʻshma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida roʻy bergan tanglik holatidan boshlandi. Soʻngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, yaʼni toʻlov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, oʻz navbatida, koʻplab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy oʻsish surʼatlarining keskin pasayib ketishi bilan bogʻliq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi"[1].

Bundan tashqari, valyutalarning keskin oshib borishi ham valyuta riski muammosining kuchayishiga sabab boʻlmoqda. Bu esa oʻz navbatida tijorat banklarida risk sohasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etishini taʼkidlab oʻtadi.

Adabiyotlar sharhi

Bank risklarini boshqarish va uni bartaraf etish muammolari bir qator xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan oʻrganilgan.

Xususan, ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarda V.Acharya, E.Altman, S.Arya, M.Chiuri, T.Dangl, M.Ferreira, P.Kupiec, S.Oppong, J.Wu tomonidan qator ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan va asoslab berilgan. Masalan, J.Vu rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi noaniqliklar va bank riskining oʻzaro bogʻliqligi kabi jihatlarni oʻrgangan. B.Chai va boshqalar bank xizmatlarining bank faoliyat olib borishiga boʻlgan taʼsirini baholab berishgan. V.Acharya





esa likvidlik riskini baholashda aktivlarning qiymatining ahamiyatini baholagan. Rossiyalik olimlar bank faoliyatida risklarni yuzaga kelishining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishgan. Jumladan, V.Kravsov, O.Lavrushin, Y.Chaykina, A.Maxota [2] tadqiqotlarda bank risklarining konseptual asoslari va uning vujudga kelishi sabablari, moliyaviy risklarning alohida jihatlari borasida ilmiy xulosalarni ishlab chiqqan. Sh.Abdullayeva, B.Berdiyarov, N.Jumayev, B.Izbosarov, N.Karimov, Z.Mamadiyarov, M.Maxmudova, M.Mo‘minova, E.Muminova, D.Nafasov, T.Raxmatov, R.Sultanov, G.Tashmuxamedova, M.Tojiyev, D.Toshpulatov kabi o‘zbekistonlik olimlar bank risklarining turli jihatlari tadqiq etishgan va o‘zlarining ilmiy xulosalarini asoslab berishgan. Prof. N.Karimov o‘zining doktorlik dissertatsiyasida tijorat banklarida risklarning vujudga kelishi va ularning investitsion loyihalar bilan bog‘liq ekanligini ifodalab beradi. Dots. M.Maxmudova tomonidan TIF Milliybank va AT Asakabank faoliyatiga doir bo‘lgan moliyaviy risklarni baholagan va o‘zining ilmiy xulosalarini asoslab bergan. Keltirilgan tadqiqotlarda banklarda moliyaviy risklarning vujudga kelishi va ularning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan va ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lsada, O‘zbekistonda bank kredit risklarini ekonometrik va stress-test modellari asosida bir vaqtda baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilmagan. Shu boisdan, mazkur tadqiqotni amalga oshirish dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada tijorat banklarida uchrashi mumkin bo‘lgan risk turlarini baholashda taqqoslama tahlil, statistik tahlil, qiyoslash, ilmiy abstraktsiyalash, analiz, sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklari faoliyatida risk moliyaviy barqarorlikka ta’sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Banklar kutilmagan zararlardan himoyalaniish va moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun risklarni samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishlari kerak. Ushbu strategiyalar banklarning uzoq muddatli muvaffaqiyati va barqarorligini ta’minlash uchun muhimdir. Bank faoliyati moliyaviy operatsiyalarning murakkabligi va xilma-xilligi tufayli turli risklarga duch keladi. Ushbu risklar banklarning moliyaviy barqarorligiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Bank faoliyatidagi risk odatda investitsiya yoki moliyaviy operatsiyaning kutilgan natijaga erishmaslik yoki kutilganidan ko‘proq natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Ushbu risklarni boshqara olmaslik banklarning daromadliligi, aktivlari va obro‘sigga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Banklar pulni samarali aylantirish va boshqarishda asosiy rol o‘ynashi sababli, ortiqcha riskga borish katta moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi va mahalliy hamda global iqtisodiyotning sekinlashishiga yoki hatto to‘xtashiga sabab bo‘lishi mumkin. Banklarda risklarni boshqarish jarayoni bankning operatsion yoki investitsion qarorlaridan kelib chiqadigan salbiy voqealar ehtimolini aniqlash, baholash va kamaytirishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon ayniqsa banklar uchun juda muhimdir, chunki ular boshqalarning pullarini yaratish va boshqarish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi. Bank sohasida risklarni boshqarish jarayoni odatda olti asosiy komponentdan iborat:

1. Aniqlash.
2. Baholash va tahlil qilish.
3. Minimallashtirish.
4. Monitoring.
5. Hisobot berish.

Ushbu komponentlarni birgalikda va muntazam ravishda takrorlash banklar uchun maksimal darajada himoya ta’minlashga imkon beradi. Shuning uchun ham “sezilarli tavakkalchiliklarning o‘z vaqtida aniqlanishi, baholanishi, monitoring qilinishi va ular bo‘yicha hisobot tayyorlanishi, nazorat qilinishi hamda mazkur tavakkalchiliklarning kamaytirilishini





ta'minlash” [3] O‘zbekiston Respublikasining Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risidagi nizomida tijorat banklaridagi Risk departamenti vazifalariga kiritib o‘tilgan. Bundan tashqari, ushbu departament har oy bank boshqaruvi har chorakda esa kuzatuv kengashiga bank tavakkalchiliklari to‘g‘risida hisobot taqdim etishi lozim.

Tijorat banklari faoliyatida risklar turli tumanligi bois ular bir nechta turlarga bo‘linadi:

1. Kredit riski
2. Operatsion risk
3. Moliyaviy risk

Kredit riski. Bu risk turi moliyaviy riskning bir turi hisoblansada, bank uchun muhim ahamiyat kasb etgani uchun alohida risk turi sifatida qayd etilyapti. Kredit riskining eng oddiy ta’rifi bankning mijozga kredit sifatida pul mablag‘larini berishda duch keladigan tavakkalchiligi va qarzni qaytarilmaslik ehtimolidir. Bu holat bankning moliyaviy majburiyatlarini bajarishga mo‘ljallangan aktivlar miqdorini kamaytirishi mumkin. Shuningdek, asosiy qarzni to‘liq foizlari bilan birgalikda undirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar bank uchun qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bank uchun kredit riskini kamaytirishi uchun ikki muhim faktorni hisobga olish lozim. Birinchidan, bankning umumiy moliyaviy holatini hisobga olish kerak. Ikkinchidan, potentsial kredit mijozning kredit tarixini, joriy moliyaviy holatini va umumiy moliyaviy xatti-harakatlarini to‘liq tahlil qilishi kerak. Quyida biz banklarning kredit riskini boshqara olishini muammoli kreditlarining tendensiyalari orqali ko‘rib tahlil qilishimiz mumkin.

1-jadval²⁵

Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi

№	Bank nomi	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi		
		2023	2024	2025
1	O‘zmilliybank	3,0%	3,1%	3,0%
2	O‘zsanoatqurilishbank	2,8%	2,2%	2,8%
3	Agrobank	3,8%	3,8%	4,9%
4	Asaka bank	4,6%	4,4%	4,5%
5	Xalq banki	11,9%	7,6%	4,2%
6	Biznesni rivojlantirish banki	3,9%	8,9%	8,5%
7	Mikrokreditbank	4,8%	6,0%	4,6%
8	Aloqa bank	2,0%	1,5%	1,9%
9	Turon bank	2,6%	2,3%	2,8%
10	Ipoteka bank	2,5%	4,7%	10,2%
11	Kapital bank	1,2%	1,4%	4,5%
12	Hamkor bank	0,6%	0,6%	1,7%
13	Ipak yo‘li bank	1,9%	2,1%	1,5%
14	Orient Finans bank	0,6%	0,3%	0,2%
15	Invest Finans bank	0,6%	1,1%	1,4%
16	TBC bank	2,1%	1,9%	2,1%
17	Davr bank	1,6%	0,6%	1,9%
18	Anor bank	2,5%	2,0%	2,4%
19	Trust bank	3,8%	2,0%	3,4%
20	Tenge bank	7,3%	2,6%	2,3%
21	Asia Alliance bank	1,4%	1,5%	2,0%
22	O‘zKDB bank	0,0%	0,0%	0,0%
23	Ziraat bank	2,9%	2,2%	3,3%

²⁵ <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2123869/>





24	Universal bank	1,9%	3,0%	1,1%
25	Hayot bank	0,0%	0,0%	0,0%
26	Garant bank	7,7%	4,7%	14,8%
27	Madad Invest bank	19,9%	13,2%	24,1%
28	Poytaxt bank	0,0%	2,3%	0,0%
29	AVO bank	0,0%	0,0%	12,5%
30	Apex bank	0,0%	0,0%	0,0%
31	Oktobank	71,6%	85,2%	0,0%
32	Yangi bank	0,0%	0,0%	8,7%
33	Uzum bank	0,0%	0,0%	0,0%
34	Smart bank	0,0%	0,0%	0,0%
35	Eron Soderot bank	3,7%	17,6%	6,6%
36	Evroosiyo bank	0,0%	0,0%	0,0%

1-jadvalda tijorat banklarida muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi tasvirlangan. Ushbu ko‘rsatkichni minimallashtirishga erishgan banklarni sanab o‘tadigan bo‘lsak, ular Xalq banki, Tenge bank hamda Saderat bank bo‘lib 3 yil davomida ularda muammoli kreditlari umumiy kredit hajmiga nisbatan kamaygan. Ammo bu ko‘rsatkich Ipoteka bank, Garant bank hamda Madad Invest bankda sezilarli darajada oshgan. Banklarning umumiy holatini ko‘radigan bo‘lsak, 4,8% (2023), 5,3% (2024), 3,9% (2025) bu ko‘rsatkich 2025-yilda kamayganini ko‘rishimiz mumkin.

Operatsion risk. Operatsion risklar bankning kundalik faoliyatidan kelib chiqadigan risklarni ifodalaydi. Masalan, bank xodimlari ehtiyotsizlik oqibatida yoki qasddan xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin. Ushbu xatolarni tuzatish bank uchun qo‘shimcha xarajatlarga olib kelishi mumkin, bu esa vaqt va pul yo‘qotishiga olib keladi. Xuddi shunday, agar bankda ATM infratuzilmasi yetarli bo‘lmasa, uning tizimlari ishlamay qolishi va mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarda uzilishlarga olib kelishi mumkin. Operatsion riskning yana bir ko‘rinishi kiberxavfsizlik bo‘lib, kiberjinoyatchilar bankning raqamli tizimlariga muvaffaqiyatli hujum qilish ehtimolini ko‘rsatadi. Operatsion xatarlarni yumshatish uchun ekspert xodimlarni yollash va ularning bankning biznes jarayonlari va axloqiy madaniyati bo‘yicha yetarli darajada o‘qitilishini ta‘minlash juda muhimdir. “Yangi texnologiyalarni qo‘llash va yangi ma‘lumotlardan foydalanish operatsion risklarni boshqarishni yaxshilashi mumkin.”[4] Bundan kelib chiqadiki, texnologiyadan foydalangan holda bank mijozlari hisobini avtomatlashtirishni amalga oshirish inson xatolarini kamaytirishga yordam beradi.

Moliyaviy risk — bu moliyaviy yo‘qotishlar yoki kutilgan natijalarga erishmaslik ehtimoli bilan bog‘liq xavf. U banklar uchun turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin hamda quyidagi turlarga bo‘linadi:

Likvidlik riski. Likvidlik bilan bog‘liq muammolar bank o‘z aktivlarini tezda naqd pulga aylantira olmaganida yuzaga keladi, bu esa kreditorlar yoki mijozlar oldidagi qisqa muddatli majburiyatlarni bajarmaslikka olib keladi.

Bozor riski tizimli risk deb ham ataladi. Bu bank investitsiyalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hodisaning ehtimoli. Bu holat bitta sanoatdagi bitta muammodan kelib chiqishi mumkin, masalan, 2008-yilda butun dunyoni tezda iqtisodiy inqirozga olib kelgan AQSh uy-joy bozorining qulashi kabi. Milliy yoki xalqaro iqtisodiy tanazzul, siyosiy beqarorlik yoki tabiiy ofatlar kabi muammolar ham bozor riskini oshirishi mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, bankning investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish bozor riskini kamaytirishda foydali bo‘ladi.

Foiz riski – bu moliyaviy bozorlarda foiz stavkalarining o‘zgarishi natijasida kompaniya, bank yoki investorlarning moliyaviy holatiga salbiy ta‘sir qilish ehtimolini bildiradi.

Banklar risklarni boshqarishni ustuvor vazifa sifatida belgilashi kerak, chunki ular har kuni duch keladigan turli muhim risklarni nazorat qilish va oldindan bartaraf etishda doimo bir qadam oldinda bo‘lishlari zarur. Banklarda risklarni boshqarish faqat qonunchilikka rioya qilish bilan





cheklanmaydi. Ular moliyaviy, operatsion hamda kredit riskini kuzatib borishi kerak. Ushbu risklarni nazorat qilish kuchli va moslashuvchan bank risklarni boshqarish dasturini talab etadi. Risk va daromad bir-biri bilan bevosita bog‘liqdir. Shunday ekan, agar bank riskni o‘z zimmasiga olmasa, bu uning daromadlariga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, har qanday biznes rivojlanishi va foyda keltirishi uchun tavakkalchilikka qo‘l urishi lozim. Ammo bu faqat batafsil o‘rganish, ta’sirni baholash, risklarni boshqarish bo‘yicha siyosat ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, tegishli risklar, tizimlar va ularni kamaytirish siyosatini uzluksiz nazorat qilishdan keyin amalga oshirilishi kerak. Quyida banklarda risk-menejmentning bir nechta asosiy usullari va yondashuvlari keltirilgan:

1. Riskdan qochish. Riskdan qochish usulida banklar xavfli bo‘lgan loyihalar yoki faoliyatlardan butunlay voz kechishni tanlaydi.

2. Diversifikatsiya. Diversifikatsiya usulida bank asosiy biznes faoliyatidan tashqari boshqa turdagi faoliyat bilan ham shug‘ullanishni tanlaydi. Bu yondashuv bir biznesdagi riskni kamaytirib, boshqa faoliyatlar orqali yo‘qotishlarni qoplash imkonini beradi. Ammo bu faqat katta va tajribali banklar uchun amalga oshiriladigan usuldir, chunki u ko‘p resurs va bilim talab etadi.

3. Riskni transfer qilish. Banklar riskni tashqi tomonlarga o‘tkazishni tanlashi mumkin. Bunga sug‘urta orqali erishiladi, ya’ni sug‘urta kompaniyalari bankning risklarini to‘lov evaziga o‘z zimmasiga oladi.

4. Riskni saqlash. Ushbu yondashuvda banklar risklarni o‘zlarida saqlaydi va risk yuzaga kelganda yo‘qotishlarni qoplash uchun yetarli zaxiralarini yaratadi.

5. Riskni bo‘lishish. Riskni bo‘lishish yondashuvi banklarning ma’lum darajadagi risklarni o‘zida saqlab qolishi, lekin riskning belgilangan darajadan oshgan qismi uchun uchinchi tomonga murojaat qilishi orqali amalga oshiriladi. Bu uchinchi tomon sug‘urta kompaniyalari yoki derivativ shartnomalar bo‘lishi mumkin.

Banklar uchun har bir risk-menejment usuli o‘ziga xos ustunlik va cheklovlarga ega. Shu sababli, samarali risklarni boshqarish strategiyasi turli usullarni birlashtirish asosida tuzilishi lozim. Banklar o‘zlarining risk darajasini baholab, mos yondashuvni tanlash orqali nafaqat yo‘qotishlarning oldini olishlari, balki barqaror rivojlanishni ham ta’minlashlari mumkin.

Xulosa

Bugungi kunda risk sohasi, uni samarali boshqarish moliya sektorlarida dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Risk — bu har qanday biznes va faoliyat jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat ehtimoliy yo‘qotishlarni anglatadi, balki to‘g‘ri boshqarilsa, yangi imkoniyatlarni ham yaratishi mumkin. Ayniqsa, moliyaviy risklarni boshqarish barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi raqobatbardosh va tezkor o‘zgaruvchan muhitda risklarni minimallashtirish o‘rniga, ularni boshqarish va ulardan oqilona foydalanish dolzarb strategiyaga aylanmoqda. Banklar uchun risklarni boshqarishning asosiy maqsadi bozor barqarorligini ta’minlash, moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirish va uzoq muddatli foydani oshirishdan iborat.

Banklarda samarali riskni boshqarish nafaqat ichki jarayonlarning mustahkamlanishini, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda yuqori rahbariyatning qaror qabul qilishda risk tahlillari natijalariga asoslanishi, barcha xodimlarning riskni boshqarish tamoyillarini to‘liq tushunishi va qo‘llashi alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, mustaqil auditlar va zamonaviy boshqaruv tizimlari banklarning riskka nisbatan mustahkam pozitsiyasini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, riskni samarali boshqarish banklarning o‘sishi va rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tegishli huquqiy bazani yaratish va banklarning risklarni boshqarish amaliyotlarini qonunchilik talablaridan yuqoriga ko‘targan holda rivojlantirishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, banklar nafaqat o‘z





manfaatlarini, balki umumiy iqtisodiy rivojlanishni ham qo'llab-quvvatlaydi. Riskni to'g'ri aniqlash hamda riskni samarali boshqarish iqtisodiyot va moliyaviy barqarorlik uchun juda muhimdir. Banklar o'z faoliyatida moliyaviy risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish orqali nafaqat potentsial yo'qotishlarni kamaytiradi, balki barqarorlikni va foydalilikni oshiradi. Zamonaviy riskni boshqarish usullari va texnologiyalarini qo'llash, statistik modellar yordamida kredit risklarini baholash, shuningdek, bozor risklarini kuzatish va hisobot qilish bank sektorining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Banklar nafaqat qonuniy talablar doirasida, balki ushbu doiradan chiqib, o'z ehtiyojlari va strategiyalariga mos riskni boshqarish yondashuvlarini ishlab chiqmoqda. Mustaqil auditlar va riskni boshqarish bo'yicha yetakchi tizimlar tashkil etish banklarni raqobatbardosh muhitda kuchliroq qiladi. Shuningdek, samarali riskni boshqarish qaror qabul qilish jarayonlariga integratsiya qilinishi kerak. Barcha bank xodimlari, ayniqsa rahbariyat, riskni boshqarishning ahamiyatini to'liq tushunib, uni amaliyotga tatbiq etishi lozim. Natijada, risklarni boshqarish orqali banklar o'z daromadlarini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va o'z pozitsiyalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman olganda, risklarni boshqarish nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy rivojlanish va kelajakdagi o'sish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, riskni boshqarishga texnologik innovatsiyalarni jalb etish va bu borada malakali kadrlarni tayyorlash bugungi kunning asosiy ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash” haqida 3427-sonli nizomi
2. The future of operational risk management | McKinsey
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -Toshkent: O'zbekiston, 2009. -4-b.
4. Risk Management in Banking: Types of Risk and Solution Suggestions for Risk Reduction Nuray Islatince

